



## OLIY TA'LIM TASHKIOTLARI TALABALARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

**Usmonova Xurshida Aybekovna**

*Andijon davlat pedagogika instituti,*

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi*

*(Boshlang'ich ta'lim) yonalishi magistranti*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada oliy ta'limga tashkilotlari talabalarining kreativligini rivojlanirishning pedagogik imkoniyatlarini hisobga olish - talabalarining aqliy kamolotini ta'minlovchi omil sifatida fikr yuritilgan. Shuningdek, oliy ta'limga muassasasi va undan keyingi kasbiy rivojlanish jarayonida talabalar o'z fanidagi ilmiy yondashuvlar, konsepsiylar, nazariyalar, eng so'ngi axborotlar mazmunidan xabardor bo'lishi kerakligi aoslab ko'rsatilgan. Kryeativ mutaxassislarni rivojlanirish zamонавија jamiyat ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Shuning ushun bugungi kun ta'lim jarayonida kryeativ o'qitish, har qanday vaziyatga nisbatan noodatiy yechim torish davri talabi.

## РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ КАК АКТУАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

### **Annotatsiya.**

В данной статье рассматриваются педагогические возможности развития креативности студентов высших образовательных организаций - как фактор, обеспечивающий умственную зрелость их студентов. Также обосновано, что в процессе высшего учебного заведения и последующего профессионального развития учащиеся должны быть осведомлены о содержании научных подходов, концепций, теорий, актуальной информации в своей дисциплине. Воспитание креативных специалистов-одна из основных задач современной образовательной системы јаміят. Поэтому сегодня креативное обучение в образовательном процессе требует необычного периода сужения по отношению к любой ситуации.

## THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION ORGANIZATIONS AS AN URGENT PEDAGOGICAL PROBLEM

### Annotation.

This article considers the consideration of pedagogical opportunities for the development of creativity of students of higher education organizations - as a factor ensuring the mental maturation of their students. It is also indicated that in the process of higher education institution and further professional development, students must be aware of the content of scientific approaches, concepts, theories, the latest information in their subject. Kryeativ specialists are one of the main tasks of the educational system of rivojlantirish modern jamiyat. Therefore ushun today's educationiarayonida kryeative teaching, an unusual yyeshim narrowing period requirement in relation to any situation.

**Key words:** Creativity, Innovation, Science, Scientific and pedagogical activity, research, discovery, self-awareness, scientific conferences, intellectual.

**Kalit so‘zlar:** kreativlik, yangilik, ilm-fan, ilmiy-pedagogik faoliyat, tadqiqot, kashfiyot, o‘z-o‘zini anglash, ilmiy konferensiyalar, intellektual.

**Ключевые слова:** творчество, инновации, наука, научно-педагогическая деятельность, исследования, открытия, самореализация, научные конференции, Интеллектуальные.

Bugungi kunda, “kreativlik” va ijod(korlik)” tushunchalarining o’zaro munosabati, bog’langanligini o’rnatishda, talqin qilishda bir biriga zid fikrlar mavjud. Ushbu masalaga uch xil yondashuv ajratib ko’rsatiladi:

1. “Kreativlik” va “ijod(korlik”) bir-biridan ajratilmaydi ular bir-biriga sinonimlar hisoblanadi.
2. Kreativlik alohida jarayon siftida o’rganiladi, va kreativlik deganda yangilikning ahamiyatlilagini rivojlantirish tushuniladi. Ijod(korlik) esa faoliyat natijasida yaratiladigan yangilikning mavjud ijtimoiy-madaniy faoliyatini bilan o’zaro aloqadorligi qaraladi. Ya’ni, kreativlik deganda shaxslar uchun yangi imkoniyatlar yaratish tushuniladi. Ijod(korlik) esa jamiyat uchun yangi imkoniyatlar yaratish deb tushuniladi. Olimlar Ye. Pikard va M. Boden *shunday nuqtai nazarlarni ilgari suradilar (individula shaxsiy va ijtimoiy kreativlik)*.



3. Kreativlik ijod(korlik)ni o'rganishaning alohida aspekti sifatida xizmat qiladi va insonning ichki resuri, salohiyati sifatida qaraladi. Masalan, olim Y.A.Ponoameryov [1] ijodning psixik jarayon sifatidagi yaxlit kontseptsiyasini taklif qiladi, kreativlikni esa shaxsning ijodiy potentsialining aspektlaridan biri deb ajratib ko'rsatadi.

Biz ham tadqiqotimiz jarayonida ushbu yondashuvni tanladik, chunki kreativlikni ijodning aspektlarining biri sifatida o'rganish uning namoyon bo'lishining ko'p serqirraliligi va murakkabligini kuzatish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu holda, kreativlikni ijod(korlik)ning umumiy qonuniyatları bilan aloqadorlikda o'rganish imkniyati mavjud.

SH.S.SHaripov "O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti" nomli doktorlik dissertatsiyasida "O'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil qilishda ikki o'zaro bog'liq vazifani e'tiborga olish lozim. Ularning birinchisi – o'quvchilar ijodiy faoliyatida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilim egallashdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish bilan, ikkinchisi – o'zlashtirgan bilimlarni ta'limda va amaliy faoliyatda mustaqil qo'llay olishga o'rgatish bilan belgilanadi" – deb ta'kidlaydi [2]. SH.S.SHaripovning keltirib o'tgan vazifalariga tayangan holda o'quvchilarining nafaqat kasbiy ijodkorligini, balki ijodiy faoliyat jarayonini bolalarning kichik yoshidan boshlab rivojlantirish, boshlang'ich sinfda o'qish davrida ularning tasavvurini boyitish orqali aqliy ko'nikmalarini rivojlantirib borish, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishlarida turli yechimlarni topib, to'g'ri qaror chiqarish ko'nikmalariga odatlantirish orqali tashkil etish mumkin degan xulosaga kelgan. Tadqiqotimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarning ayrimlarida o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning ba'zi xususiyatlari keltirib o'tilgan [2].

U.A.Usmanova o'zining "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy tasavvurini rivojlantirish" mavzusidagi dissertatsiyasida ijodiy topshiriqlarning bir qancha turlarini keltirib o'tgan va ijodiylik, ijodkorlik va kreativ fikrlashning farqlarini taxliliy jixatdan o'rgangan.

U.A.Usmanova o'zining tadqiqotlarida quyidagicha yondashuvni keltirib o'tgan: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'rganishga, o'zlashtirishga xohish va qiziqishni rivojlantirishda qiziqarli topshiriqlar, didaktik vositalar, ijodiy mashg'ulotlarning qo'llanishi samarali usullardan biri ekanligini unutmaslik lozim. Zehnlilik, topqirlik,



sinchkovlik, qiziquvchanlik, izlanuvchanlik sifatlari mustaqil va ijodiy faoliyatni tashkil qilishning asosiy omillari hisoblanadi. Ta’lim jarayonining ushbu omillar asosida tashkil etilishi o’qituvchi va o’quvchi muloqotini individual va differentsial yondashuvga asoslangan innovatsion texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi [3].

Pedagogikada innovatsion yondashuvni joriy etishda ijodkorlik faoliyatining ma’naviy, didaktik, texnologik, tashkilotchilik kabi turlaridan keng foydalanish mumkin

Bugungi kunda amalga oshirilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarda “kreativlik” tushunchasining juda ko’p sonli ta’riflari mavjud:

N.M.Gnatko, kreativlikni ob’ektning funksiyalarini qayta fikrlab tushunishga, uni yangi sifatda qo’llashga bo’lgan qobiliyat deb o’rganadi. Uning fikriga ko’ra, kreativ inson hayot va jamiyat, hamda o’z ishlarining ma’no-mohiyati haqidagi tasavvurlarining turli-tumanligi bilan tariflanadi [4].

Olim Ye.P.Torrens [5] muammolarga sezuvchanlik va ularni kreativlikni omil sifatida anglashni; hamda o’z bilimlarining yetarli emasligidan qoniqmaganlik, yechimlarni izlashga bo’lgan qobiliyatni, disgarmoniyaga (uyg’unlikning yo’qligiga), topishmoqlarni taxmin qilib topishga, farazlarni tuzib, ifodalashga bo’lgan sezuvchanlikni ajratib ko’rsatadi.

O’tkazilgan tadqiqotlar asosida olim kreativlikni rivojlantirishga biologik omil emas, balki inson tarbiya topadigan muhit eng katta ta’sir ko’rsatishi to’g’risidagi xulosaga keladi, va kreativlikning rivojlanishida ta’lim (tarbiya) yo’li bilan bartaraf qilish mumkinligini eksperimental tarizda ko’rsatib beradi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib kreativlikning bir nechta ko’rsatkichlarini ajratib ko’rsatish mumkin: fikrlashning mahsuldarligi, faoliyatni rejalahtirish qobiliyati, amallarning oldindan aytib berishning mumkinligi, qarorlar qabul qilish va ularning ijrosi, umumlashtiish qobiliyati.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

9. Пономарев, Я. А. Психология творчества: перспективы развития / Я. А.Пономарев // Психологический журнал. - 2004.- т.15. - №6. - С.38 —50.



10. SHaripov SH.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti: Avtoref. ped. fan. dok. – Toshkent, 2012. – 27 b.
11. Usanova U.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy tasavvurini rivojlantirish. Avtoref. ped. fan. bo'y. fal. dok. – Toshkent, 2018. – 21 b.
12. Гнатко, Н.М. Проблема креативности и явление подражания / Н.М. Гнатко; РОС. АН, Ин-т психологии. - М. : Ин-т психологии РАН, 2004. -43 с
13. Torrence E.P. Developing creative thinking through school experience. // N.Y., 1962. – p. 215

